


2019 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2019 yil 1 iyul holatiga ko'ra, 23,9 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 14,8 mingga ortiq korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

**2019 yil 1 iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 10,0 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2019 yil 1 iyul holatiga ko'ra, ularning ulushi 67,8 % tashkil etdi.

2019 yil 1 iyul holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan, kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %



2019 yil 1 iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (31,9 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 2,8 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,2 % ni tashkil etdi.

**2019 yil 1 iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha tarkibi, %**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3925,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,5 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (31,9 %), transport xizmatlariga (23,8 %), moliyaviy xizmatlarga (13,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (5,2 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 805,7 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2019 yil yanvar-mart oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 2103,5 mlrd. so'mga ko'paydi.

2019 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taq qoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (223,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (199,4 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (193,4 mlrd. so'mga) hamda ta'lif sohasidagi xizmatlar (26,9 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 168,3 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 26,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 100,7 mlrd. so'm, ta'lif sohasidagi xizmatlar – 12,4 mlrd. so'mga oshgan.

**2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	3 925,8	114,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	203,3	115,9
moliyaviy xizmatlar	545,2	150,4
transport xizmatlari	932,9	115,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	877,4	112,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	109,2	102,0
savdo xizmatlari	1254,1	108,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	124,2	103,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	110,5	106,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	46,9	109,1
ijara xizmatlari	108,8	102,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash	137,5	102,5
bo'yicha xizmatlar		
shaxsiy xizmatlar	142,7	104,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	75	136,5
boshqa xizmatlar	135,6	105,8

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (150,4 %), me'morchilik, sohasidagi xizmatlar (136,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,9%), transport xizmatlari (115,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (106,2 %), sog'lioni saqlash sohasidagi xizmatlar (109,1 %), xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha (102,0 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (102,5 %) va ijara xizmatlari (102,6 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 31,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (23,8 %), moliyaviy xizmatlar (13,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,2 %) egallaydi.

**2019 yil yanvar-iyun oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %**




2019 yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1254,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 223,8 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.



2019 yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 82,7 % ni tashkil etadi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,4 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,9 % ni egallaydi.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiyligi ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.


2019 yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 203,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi oyga nisbatan o'sishi 34,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 97,0 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 91,4 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 8,6 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 545,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 150,4 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (91,5%) tashkil etadi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 110,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 106,2 % tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 109,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,8 % ga yetdi.


**2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm), %**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	3925,8	114,5
Qarshi sh.	1968,0	121,0
Shahrisabz sh.	142,0	121,6
G'uzor	136,3	109,5
Dehqonobod	87,5	106,4
Qamashi	131,8	106,5
Qarshi	160,6	107,3
Koson	210,7	108,1
Kitob	182,2	106,3
Mirishkor	95,7	121,4
Muborak	125,2	95,7
Nishon	134,1	108,4
Kasbi	86,1	108,2
Chiroqchi	154,8	107,3
Shahrisabz	142,5	109,7
Yakkabog'	168,3	109,2

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (1968,0 mlrd. so'm), Koson (210,7 mlrd. so'm), Kitob (182,2 mlrd. so'm), Yakkabog' (168,3 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Kasbi (86,1 mlrd. so'm), Mirishkor (95,7 mlrd. so'm), Dehqonobod (87,5 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Qamashi (106,5 %), Dehqonobod (106,4 %) tumanlarida kuzatildi. Muborak tumanida esa kamayish sur'ati (106,3 %) kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %


■ Qarshi sh.	■ Shaxrisabz sh.	■ G'uzor	■ Dehqonobod	■ Qamashi
■ Qarshi	■ Koson	■ Kitob	■ Mirishkor	■ Muborak
■ Nishon	■ Kasbi	■ Chiroqchi	■ Shaxrisabz	■ Yakkabog'



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (50,1 %), Koson (5,4 %), Kitob (4,6 %), Yakkabog' (4,3 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Kasbi (2,2 %), Dehqonobod (2,2 %), Mirishkor (2,4 %) tumanlari to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha aholi jon
boshiga ko'rsatkichlar, %**




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har chorakda o'sishi kuzatilmoxda. 2019 yil yanvar-mart oylariga nisbatan hajm 650,7 ming so'mga oshib, 1216,7 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 229,6 ming so'mga farq qildi.

Hududlar orasida bu ko'rsatkich Qarshi shahrida 7238,1 ming so'mdan, Chiroqchi tumanida 385,1 ming so'mgacha oralig'iда farq qildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Qarshi shahrida (119,3 %), Shahrisabz shahrida (119,3 %), Mirishkor (119,1 %) va Shahrisabz (107,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Dehqonobod va Qamashi tumanlarida (104,2 %), Kitob (104,3 %) tumanida qayd etildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning kamayishi Muborak tumanida (93,6 %) kuzatildi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
(998)75-221-44-32 (998)71-230-84-03